

## FRAZEOLOGIZMLAR TAHLILI XUSUSIDA

Tursunmuratova Dilnoza Turamuratovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Fransuz filologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi,

Normatova Barno Qodirjon qizi,  
Namangan davlat chet tillari instituti, Nemis va fransuz tillari kafedrası stajyor o‘qituvchisi,

Akhmedova Gulnoza Khayotovna  
Buxoro Davlat universiteti Fransuz filologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi,

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi zamon tilshunoslikda frazeolik birliklar tahlili va ularning lug‘atlarda berilishi muammosi tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** frazeologiya, frazeologik lug‘at, tasnif

**Аннотация:** В статье классифицируются фразеологизмы и фразеологические единицы, анализируются возможности их представление в

**Ключевые слова:** классификация, фразеология, фразеологический словарь

Frazeologiya tilshunoslikning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, u tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma‘lumot beradi, ya‘ni frazeologiya tilshunoslikning frazemalar bilan shug‘ullanuvchi va turg‘un iboralar haqidagi bilim demakdir. Iboralar turg‘un birikma holdagi atamalarini, parafrazalar va frazeologizmlarni o‘z ichiga oladi. Bu birikmalar faqat ma‘no ifodalash xususiyatiga ko‘ra bir-biridan o‘zaro keskin farq qiladi. Birikma atamalar ma‘nosi tarkibidagi so‘zlar ma‘nosi sintezidan kelib chiqadi. Parafrazalar turg‘un birikmalardan iborat bo‘ladi. Ularning ma‘nosi ham tarkibidagi so‘zlar ma‘nosidan kelib chiqadi. Biroq tarkibidagi so‘zlar birikma atamalar kabi nominativ ma‘nosi bilan emas, balki majoziy ma‘nosi bilan ishtirok etadi.

Frazeologiya leksikologiyaning tarkibida o‘rganib kelingan va u alohida tarmoq sifatida ajralib chiqqan va nutqdagi, tildagi barcha turg‘un birikmalar bilan shug‘ullanadi. Bu birikmalar frazeologik birikmalar, frazemalar, frazeologik birliklar kabi atamalar bilan nomlanadi. Bunday turg‘un birikmalar qatoriga, odatda,



maqol, matallarni ham kiritiladi. Ular tilda ekspressivlik, emotsionallik, obrazlilikni oshirish uchun qo'llaniladi.

So'z ham, frazeologik birikma ham lug'aviy birlik sanaladi. Tilning lug'at boyligini tashkil qiladi. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar singari nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular huddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

A.Reformatskiy frazeologiya to'g'risida shunday deydi: "Biror adabiy yo'nalishga yoki biror muallifga nisbatan qo'llaniladigan so'zlar va so'z birikmalari frazeologik birikmalar" deb ataladi.

V.M.Mokiyenkoning fikriga ko'ra esa "Frazeologik birlik deganda turg'un, qayta ishlangan, ekspressiv, yaxlit ma'noga ega bo'lgan leksemalar birikmasi tushuniladi".

Frazeologiya sohasi bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan tilshunoslardan M.D.Stepanova hamda I.I.Chernishovalar frazeologizmlar bir ma'no anglatuvchi, ammo turli sintaktik tuzilishga ega bo'lgan turg'un so'zlar yig'indisidir, uning ma'nosi birikma tarkibining batamom yoki qisman semantik ma'nosiga bog'liq bo'ladi deb fikr yuritadilar.

Frazeologiyaning inson psixologiyasiga oid, shuningdek, insonlar o'rtasida munosabatlari ma'lum frazeologik – semantik guruhga jamlanadi, ya'ni bular maqto'v va tanbeh, baxt va baxtsizlik, sevgi va nafrat, omad va omadsizlik, mag'lubiyat, o'lim, kasallik, ahmoqlik, qiyinchiliklar, yolg'on, ruhiy tushkunlik, g'azab, yordamga muhtojlik va boshqalar.

Frazeologik lug'atlar har bir tilning va uning madaniyatini eng muhim va boy jabhasi hisoblanadi. Frazeologizmlarda esa xalqning buyuk roli, tillararo munosabatlar, ularning tarixi, madaniyati aks etadi.

Frazeografiya tildagi turg'un birikmalar – frazeologizmlardan lug'at tuzish tamoyillarini, frazeologik lug'at turlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik sohasidir.

Turkiy tillardagi, jumladan o'zbek tilidagi frazeologik va paremiologik materialni yig'ish, sistemalashtirish ishi qadimdan boshlangan. H.Berdiyev, R.Rasulov, B.Yo'ldoshevlarning yozishicha, qadimgi turkcha frazeologik lug'at qatoriga 1480 yilda yozilgan noma'lum muallif tomonidan tuzilgan "Otalar so'zi" kitobini kiritish mumkin. Bu kitob 1936 yilda Anqarada Valet Izbudak tomonidan nashr etilgan. 1547 yilda Turkmyada Mustafafo afandi tomonidan "Forscha-turkcha frazeologik lug'at" tuzilgan.



1978 yilda “O‘zbek xalq maqollari” nomi bilan S.Xudoyberganov, M.Afzalov va S.Ibrohimovlar tomonidan maqollar to‘plami nashr etildi. Yana bir maqollar to‘plami “Fan” nashriyotida akademik Sh.Shoabdurahmonov so‘z boshi yozgan folkolshunos olimlar B.Sarimsoqov, I.Xaqqulov, A.Musaqulov va R.Zarifovlar tomonidan tematik tamoyil asosida tuzilgan maqollar lug‘ati chop etirildi.

Shuni qayt etish lozimki, boshqa bir qancha tillarda frazeologik lug‘atlarning paydo bo‘lish tarixi ancha uzoqqa borib taqaladi. Masalan, rus, nemis, tatar, ingliz va boshqa tillarning izohli, ikki tilli frazeologik lug‘atlarining paydo bo‘lishi 50-yillarda boshlangan. Hattoki, ba’zi tillarda bir, ikki tilli frazeologik lug‘atlardan tashqari besh tilli frazeologik lug‘atlar ham tuzilganligini qayt etish lozim. Masalan, tatar tilida N.Isanbet 1959 yilda uch tomli maqol va matallar to‘plamini hamda 1989 yilda esa ikki tomli frazeologik lug‘at tuzilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Hozirga kelib esa bir va ikki tilli frazeologik lug‘atlar tuzish ishi jadallashdi.

Fransuz frazeografiyasiga e’tibor bersak, bu tilda bir, ikki tilli frazeologik lug‘atlarning paydo bo‘lishi fransuz frazeografiyasining tez fursatlarda rivojlanishiga zamin bo‘lmoqda. Ammo bu muammo aniq bir til asosida ham qo‘llanishi mumkin.

Alohida shuni qayd etish lozimki, rus tili frazeografiyasi sohasida ayniqsa, nazariy jihatlarini chuqur o‘rganib chiqilgan. Bular taniqli olimlardan M.A.Aleksenko, N.F.Alefirenko, A.M.Bushuy, Y.A.Gvozdayev, V.P.Jukov, A.V.Jukov, V.I.Zimin, V.M.Mrkiyenko, A.I.Molotov, V.N.Teliya va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksin topgan. Bu olimlar tomonidan ishlab chiqilgan frazeografiyaning nazariy va amaliy jihatlarini boshqa tillarning frazeografik muammolariga asos bo‘ldi (fransuz, ingliz, nemis va boshqa tillar). Ayniqsa, A.V.Kuninning ingliz frazeografiyasiga qo‘shgan beqiyos xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak.

Frazeografiya sohasida ingliz olimlari Adam Makkey, R.L.Kolinz, Ronald Makin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida asosiy nazariy jihatlarini ko‘rish mumkin.

Turli tillarda frazeografiyaning tamoyillari quyidagi taniqli olimlarning ilmiy tadqiqotlarida nazariy va metodologik asos sifatida tadqiq qilingan va rivojlantirgan. G.X.Axunzyanov, A.V.Kunin, V.P.Jukov, V.M.Mokiyenko, A.M.Melerovich, N.Isanbet va boshqalar.

Frazeologik lug‘atlar tipologiyasi, ya’ni ularni qiyosiy o‘rganish va tadqiq qilish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi mumkin:

Frazeografik materialni tashkil qilish metodi asosida: izohli, ideografik lug‘atlar



Bunday lugʻatlarda frazeologik materiallar alfavit tartibida joylashtiriladi va frazeologik birliklar quyidagi tamoyillar asosida lugʻatdan joy oladi: birinchi komponentga asosan, semantik jihatdan asosiy komponentga koʻra, grammatik jihatdan asosiy komponentga koʻra.

Frazeologizmlarni tashqi paradigmatic aloqalarining tipiga koʻra: frazeologik antonimlar lugʻati, frazeologik omonimlar lugʻati, frazeologik sinonimlar lugʻati  
Frazeologik lugʻatlarni tuzishda qoʻllaniladigan tilga koʻra: bir tilli, ikki tilli (tarjima), koʻp tilli

Frazeologik lugʻatlarning qoʻlanish sohasiga koʻra: maktab oʻquvchilari uchun, filologik fakultetlarning talabalari va umuman filologlar uchun, ommabop

Frazeologik materialni tanlab olish tamoyiliga koʻra lugʻatlarning quyidagi turlariga koʻra: oddiy frazeologik lugʻatlar, maxsus frazeologik lugʻatlar (feʼli frazeologizmlar, frazeologizm – evfimizmlar lugʻati).

Frazeologik lugʻatlarda asosiy eʼtibor qaratiladigan frazeologik birliklarning parametriga koʻra: oddiy izohli, etimologik va kulturologik lugʻatlar, okkazional variantli lugʻatlar.

Bugungi kunda tilshunoslikda turli turdagi lugʻatlar tuzish bilan birga koʻp tilli frazeologik lugʻat tuzish vaqti keldi va bu ishni bajarish uchun olimlarimiz tomonidan lugʻatshunoslikning nazariy va amaliy jihatlari oʻrganilishi lozim.

## References

1. Turamuratovna, Tursunmuratova Dilnoza. "FRANSUZCHA ASARLARDA BADIY TASVIR VOSITALARINING AHAMIYATI." *Journal of new century innovations* 43.2 (2023): 31-34.
2. Rustamova F. TERMIN VA ZODIAK TERMINI TUSHUNCHALARINING TA'RIFI. *Евразийский журнал академических исследований*. 2023 Apr 29;3(4 Part 4):258-61.
3. TURSUNMURATOVA, Dilnoza. "BADIY MATN TARJIMASIDA LISONIY VOSITALARNING O'RNI." *News of UzMU journal* 1.1.1. 1 (2024): 300-303.
4. Akhmedovna, Iroda Juraeva, and Gulsara Kurbonova Sodikovna. "Problems of linguo-cultural analysis of phraseological units in the French and Uzbek languages." *Linguistics and Culture Review* 5.S2 (2021): 1291-1307.

